



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QASHQADARYO VILOYATI
HOKIMINING
QARORI

2024-yil 27-sentabr

468-4-0-Q/24

Qashqadaryo viloyati
hokimligi

**Kasbi tumani obodonlashtirish boshqarmasiga Kasbi tumanidagi ichki
yo‘llarning egallab turgan yer maydonini doimiy foydalanish huquqi asosida
ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-son qaroriga muvofiq, Qashqadaryo mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati davlat muassasasining 2024-yil 23-sentabrdagi 699-son va Kasbi tumani obodonlashtirish boshqarmasining 2024-yil 16-sentabrdagi 01-01/113-son buyurtma xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Qashqadaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi, hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashining kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kasbi tumani obodonlashtirish boshqarmasiga Kasbi tumanidagi ichki yo‘llar egallagan, tuman hokimligi zaxira yer fondida turgan, qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 11,97 gektar boshqa yer maydonlari **ilovaga** muvofiq doimiy foydalanish huquqi asosida ajratilsin.

3. “Kadastr va ro‘yxatdan o‘tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi” orqali avtomatik ravishda shakllantirilgan elektron xarita ushbu qarorga ilova qilinsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (G‘.Hamroyev):

ushbu qaror hamda yer maydoni bo'yicha tayyorlangan hujjatlar yig'majildi, vakolatli tashkilotlarning xulosalari va kelishuvi bo'yicha materiallarni bir ish kuni ichida elektron tizimdan yuklab olib, ma'lumotlarni umumlashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga kadastr pasportini rasmiylashtirsin;

ushbu yer uchastkasiga bo'lgan huquqni "Kadastr va ro'yxatdan o'tkazish integratsiyalashgan axborot tizimi" orqali ikki ish kuni davomida davlat ro'yxatidan o'tkazsin.

5. Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini monitoring qilib borsin.

6. Ajratilgan yer maydonidan ikki yil muddatda foydalanilmaganda mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasiga ko'ra bekor qilinishi belgilab qo'yilsin.

7. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining www.qashqadaryo.uz rasmiy veb-saytida e'lon qilinsin.

8. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari M.Azizov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi



M.Azimov

Qashqadaryo viloyat hokimining
2024-yil 27-sentabrdagi
468-4-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

2024-yil Tashabbusli budjet doirasida ichki yo'l obyektlari xatlovdan o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot

T/r.	Tuman nomi	MFY nomi	Yo'l uzunligi (km)	Gektari
			26,6	11,97
1	Kasbi tumani	“Maymanoq” MFY Yangi hayot, Tokzor, Do'stlik ko'chalarining ichki yo'llari.	3,8	1,71
2		Pandiron qishlog'i A.Navoiy 1,2,3 Mirza Ulug'bek 1,2,3 ko'chalarining ichki yo'llari.	3,8	1,71
3		“Istiqlol” MFY hududidagi Hunarmandlar, Zebo va Qarshi ko'chalarining yo'llari.	3,8	1,71
4		“Qo'ng'irot” MFY Adolat-1, Kerayt, Qo'ng'irot-3, Vatanparvar 4, Qoraqo'ng'irot ko'chalari	3,8	1,71
5		“Obod yurt” MFYdagi Zarafshon, Do'stlik, Mustaqillik, Yangi hayot, Bunyodkor, Nasaf, Mash'al ko'chalarining yo'llari	3,8	1,71
6		“Mug'lon” MFY Amir Temur, Usmon Nosir, Fuzuliy, Allot-1 va boshqa ichki ko'chalarining yo'llari	3,8	1,71

7		“Oqjangal” MFYning Madaniyat, Yangi turmush, Guliston va Oltin qum ko‘chalarining yo‘llari.	3,8	1,71
---	--	---	-----	------